



SINTAKTIK SATH

Zaynobiddinova Omina

Qo'qon Universiteti Andijon filiali IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti

Filalogiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi. Email:

mavjudaabdullayeva16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolda til tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bolgan sintaktik sathning nazariy asoslari atroflicha yoritiladi. Sintaktik til birliklarining o'zaro bog'lanishi, gap va gapdan yirik birliklarning tuzilishi hamda ularning nuqtai vazifalarini o'rganadigan sath sifatida taqlin etiladi. Maqolada sintaktik birliklar – so'z birikmasi, soda gap, qo'shma gap va matn tushunchalarining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sintaktik munosabatlar, sintaktik bog'lanish turlari hamda ularning grammatik va semantik ahamiyati ochib beriladi. Sintaktik sahtning morfologik va leksik sathlar bilan uzviy aloqasi misollar asosida izohlanadi. Tadqiqot natijalari sintaktik masalalarini chuqurroq anglash, til birliklarining nutq jarayonidagi funksiyansini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Sintaktik sath, sintaksis, gap, so'z birikmasi, qo'shma gap, sintaktik munosabat, til sathlari.

Annotation.

This article provides a comprehensive overview of the theoretical foundations of the syntactic level, which is one of the key components of the language system. Syntax is presented as a level that studies the interrelation of syntactic language units, the structure of sentences and larger units than the sentence, as well as their functions. The article analyzes the linguistic characteristics of syntactic units such as word combinations, simple sentences, complex sentences, and text. In addition, syntactic relations, types of syntactic connections, and their grammatical and semantic



significance are revealed. The close relationship of the syntactic level with morphological and lexical levels is explained through examples. The research results are important for a deeper understanding of syntactic issues and for comprehending the functions of language units in the speech process.

Key words: syntactic level, syntax, sentence, word combination, complex sentence, syntactic relation, levels of language.

Аннотация.

В данной статье всесторонне освещаются теоретические основы синтаксического уровня, являющегося одним из важнейших компонентов языковой системы. Синтаксис представлен как уровень, изучающий взаимосвязь синтаксических языковых единиц, структуру предложения и единиц, превышающих предложение, а также их функции. В статье анализируются лингвистические особенности таких синтаксических единиц, как словосочетание, простое предложение, сложное предложение и текст. Также раскрываются синтаксические отношения, виды синтаксической связи и их грамматическое и семантическое значение. На примерах поясняется тесная связь синтаксического уровня с морфологическим и лексическим уровнями. Результаты исследования имеют важное значение для более глубокого понимания синтаксических проблем и функций языковых единиц в процессе речи.

Ключевые слова: синтаксический уровень, синтаксис, предложение, словосочетание, сложное предложение, синтаксические отношения, уровни языка.

Kirish. Til murakkab va ko'p qatlamli tizim bo'lib, u o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha sathlardan tashkil topadi. Ushbu sathlar leksik, fonetik, morfologik va sintaktik sathlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida sintaktik sath alohida o'rin egallaydi, chunki aynan sintaksis orqali til birliklari nutqda fikr ifodalash vositasiga aylanadi. Inson tafakkuri va muloqoti asososan gaplar orqali namoyon bo'lgani



sababli sintaktik sath tilshunoslikda markaziy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Sintaktik sath so'zlarining ozaro munosabati, gap tuzilishi, gap bo'laklarining joylashuvi va ularning ma'no jihatdan bog'lanishini o'rganadi. Bu sath nafaqat grammatik qurilmani, balki nutqning mantiqiy va kommunikativ tomonlarini ham qabrab oladi. Shuning uchun sintaktik birliklarni o'rganish tilning amaliy qo'llanishi, ya'ni og'zaki va yozma nutqni mukammal egallashga yordam beradi. Hozirgi zamon tilshunosligida sintaktik sath masalalari kommunikativ, funksional va matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilinmoqda. Bu esa sintaksisning faqat grammatik emas, balki ijtimoiy va psixolingvistik jihatdan ham muhim ekanligini ko'rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy sintaktik sathning mohiyati, birliklari va ularning til tizimidagi o'rnini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Sintaksis – lotincha so'z bo'lib, tuzilish, qurilish ma'nolarini anglatadi. U fan sifatida so'zlarning bir qatorga tizilishi natijasida hosil bo'lgan qurilmalarni o'rganuvchi ta'limotga nisbatan ishlatiladi. Sintaksis grammatikaning teng huquqli bir qismidir. U tilning ierarxik sintaksisda eng yuqori bosqich hisoblanadi. Til bilimlari fonetika bilan boshlanib, sintaksis ta'limoti bilan yakunlanadi. Sintaksis bilan bog'liq bo'lgan bir qator atamalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Sintaktik aloqa – sintaktik konstruksiyani tashkil etgan elementlarning birikish yo'li. Sintaktik konstruksiya – so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'lgan qurilma: saxiy kuz, go'zal bahor. Sintaktik konstruksiyaning tashkil qilinishida elementlarni bog'lovchi vositalar: intonatsiya, ko'makchilar, kelishiklar va egalik qo'shimchalaridir. Sintaktik hodisa – sintaktik birliklarni o'zaro birikish jarayoni. Sintaktik munosabat - sintaktik aloqa bilan sinonim tarzda qo'llanuvchi atama. Sintaksisning tekshiruv ob'yekti keng. Shunga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilida:

1. So'z birikmasi sintaksisi.
2. Gap sintaksisi.
3. Matn sintaksisi.



Ana Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, sintaksisni tekshiruv ob'yehti so'z birikmasi, gap, gap bo'laklari, gap turlari yaxlit tugallangan matn ko'rinishlari hisoblanadi. Umuman, sintaksisni tekshiruv ob'ekti sintaktik qurilmalardir. Sintaktik konstruktsiyalar tuzilshiga ko'ra bir so'zli, ikki so'zli, ko'p so'zli sintaksik konstruktsiyalarga bo'linadi. Bir so'zli sintaktik konstruktsiya deyilganda, 4 faqat birgina so'zdan iborat bo'lgan atov gap tipidagi qurilmalar tushuniladi. Masalan: Bahor. Atrof ko'm-ko'k maysalar bilan qoplangan. Ikki so'zli sintaktik konstruktsiya faqat ikki mustaqil ma'noli so'zning birikishidan tashkil topadi: Lolaning kitobi, go'zal diyor, Oygul bilan Baxtiyor. Ko'p so'zli sintaktik konstruktsiyalar uch yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlardan tashkil topadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilg'orlarining yig'ilishi. Kecha men Toshkentdan poyezdda keldim. Sintaksis tilshunoslikning barcha sohaları bilan o'zaro aloqador bo'ladi. Fonetikada nutq tovushlari; leksikologiyada so'z ma'nolari; morfologiyada so'z shakllari va turkumlari o'rganilar ekan, ularning asosiy vazifasi va ma'nosi sintaksik konstruktsiyada to'la yuzaga chiqadi. Sintaksik konstruktsiyalar esa sintaksisning asosiy tekshiruv ob'yehti bo'lib boshqa sohalar bilan aloqasini vujudga keltiradi. Sintaksis grammati kaning bir qismi bo'lib, gap qurilishi haqidagi ta'limotdir. Gap va uning logik-grammatik tiplari sintaksisning o'rganish ob'ektidir. So'z birikmalari va gap bo'laklari gap qurilishining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirish usullari sintaksisning «so'z birikmasi» bahsining ob'ekti hisoblanadi. Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi – morfologiya bilan uzviy bog'liqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiradi. Sintaktik kategoriyalar ko'pincha morfologiya bilan bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, sodda gaplarda paradigmasi morfologik kategoriyalar asosida bayon qilinadi. Ba'zi til hodisalari (kelishiklar, yordamchi so'zlar) ham morfologiyada, ham sintaksisda o'rganiladi. Gapda so'zlarning o'zaro aloqaga kirish usullari. So'zlar o'zaro tenglashish, munosabatdorlashish, ergashish, moslashish orqali sintaktik aloqaga kirishadi. Tenglashishda sintaktik jihatdan teng, biri ikkinchisiga



bo'ysunmaydigan so'zlar sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda ochiq yoki yopiq qator hosil bo'ladi: Zulfiya va Feruza birga dars tayyorlashdi. (Yopiq qator) Zulfiya, Feruza, Nazira, Dinoralar birga dars tayyorlashdi. (Ochiq qator) Ergashishda biri hokim, biri tobe bo'laklar sintaktik aloqaga kirishadi: beshta daftar, vazifani bajarmoq. Munosabatdorlashish (koordinatsiya)da biri ikkinchisini taqozo qiladigan so'zlar sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda biri ikkinchisiga hokim, biri ikkinchisiga tobe: Salimaning daftari. Bu tip konstruktsiyalarda birinchi komponentning belgisiz kelishi ham mumkin: institut kutubxonasi. Moslashishda ega va kesim formasiga ko'ra, ya'ni shaxs-sonda molashadi: Men o'qidim. Siz keldingiz. Uchinchi shaxsda son jihatidan doimo moslashish shart emas. Qiyoslang: Ular keldilar, ular keldi. 5 So'zlarning o'zaro sintaktik aloqasi predikativ hamda nopredikativ bog'lanish hosil qiladi. Moslashish predikativ bog'lanish, tenglashish, ergashish, munosabatdorlashish, nopredikativ bog'lanish hosil qiladi. Gapda so'zlar, umuman olganda, o'zaro ikki xil sintaktik aloqa yordamida bog'lanadi: 1. Teng aloqa. 2. Tobe aloqa. Teng aloqa yordamida o'zaro birikkan so'zlar semantik-grammatik jihatidan mustaqil bo'ladi, biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi, formal jihatdan bir xilda shakllanadi. Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar gapda bir xil sintaktik funktsiyani bajaradi, bir xil so'z turkumidan ifodalanadi. Teng aloqa yordamida uyushiq bo'laklar hosil bo'ladi. Gapda teng aloqaga kirgan so'zlar o'rni almashtirilganda ham grammatik holatga putur etmaydi. Bu tipdagi so'zlar bir grammatik aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar komponentlar o'zaro teng bog'lovchilar (Tohir va Zuhra, olma va anor kabi), tenglik intonatsiyasi (Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas) shuningdek, har ikkala usulning birga qo'llanishi bilan (ishchi, dehqon va intelligent) bog'lanadilar. So'zlarning teng aloqasi teng bog'lovchi funktsiyasida keluvchi ayrim yuklamalar yordamida ham hosil qilinishi mumkin. Masalan: Onayu bola-gulu lola. Demak, ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning grammatik-semantik jihatdan teng munosabatga kiruvchi teng aloqa deb aytiladi. Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar alohida



olinganda ham, gap doirasida ham mustaqil tushunchani anglatadi. Tobe aloqa yordamida soʻz birikmasi hamda gap hosil qilinadi. tobe aloqa orqali birikkan soʻzlardan-komponentlardan biri hokim (bosh soʻz), ikkinchi tobe (ergash soʻz) boʻladi. Hokim tobelik qoʻshilmasining xarakteridan, boshqaruvchi soʻzning semantik hamda soʻz formasi va soʻz tartibidagi almashinib turadi. Tobe aloqada soʻzning maʼnosini aniqlaydi, konkretlashtiradi, toʻldiradi, izohlaydi, unga qoʻshimcha maʼno beradi. Masalan: Quvaning anori (hokim komponent – anor), kitob oʻqimoq (hokim soʻz – oʻqimoq), qizil olma (hokim soʻz - olma), yaxshi gapirmoq (hokim soʻz - gapirmoq) soʻz birikmalarida hokim komponentlarining maʼnolari oʻrniga xoslik, obʼyektli, attributiv va relyativ belgilash jihatdan aniqlangan, konkretlashtirilgan, toʻldirilgan. Hokim tobelikni belgilashda komponentlarning faqat ichki maʼno tomoni asos qilib olinmaydi. Aks holda Navoiy gʻazali (gʻazal Navoiyniki), kolxozchining qizi (qiz kolxozchiga qarashli), daraxtning bargi (barg daraxtniki) kabi birikmalarda aniqlovchi komponent hokim, aniqlanuvchi komponent tobe hisoblangan boʻlar edi. Holbuki, grammatika til faktlarini oʻrganayotganda, uning formasini, grammatik maʼnosini hisobga oladi. Shuning uchun ham yuqoridagi birikmalarda mantiqan 6 hokim boʻlak aniqlovchi komponentlar hisoblansa-da, grammatik jihatdan hokim boʻlak aniqlanuvchi komponentlardir. Soʻroq hokim boʻlakdan tobe boʻlakka beriladi: Katta maydon – qanday maydon? Qorni kuramoq – nimani kuramoq? Odobli bola – qanday bola? Tobe komponentlarning ergashtiruvchi vositalar (kelishik qoʻshimchalari, koʻmakchilar) bilan kelishi ham hokim soʻzning talabi bilan boʻladi: Baxtga erishmoq, ozodlik uchun kurashmoq, sizni koʻrmoq, telefon orqali gaplashmoq kabi. Komponentlar ichki maʼno yaqinligi tufayli munosabatga kirishganda, hokim tobelikni koʻrsatuvchi formal belgilar boʻlmaydi. Bu vaqtda soʻz birikmasining hokim va tobe komponentini shu birikmaning umumiy semantikasidan bilib olish mumkin. Masalan: qiziqarli kitob narsaga oid (tobe hokim), tez yurmoq-belgi harakatga oid (tobe-hokim). Hokim tobelikni aniqlashda



soʻz tartibi ham katta rol oʻynaydi. Oʻzbek tilida hokim komponent koʻpincha tobe komponentdan soʻng joylashadi: Alisherning asari, chiroyli shahar, Vatanni sevmok, yaxshi oʻqimoq. Baʼzan poetik nutqda maʼlum bir stilistik maqsad bilan komponentlar oʻrnini almashtirib qoʻllash hollari uchrab turadi: Vatanim mening, kutarman oshiqu zorimni (hokim-tobe) kabi. Shunday hollar ham boʻladiki, soʻz tartibining oʻzgarishi bilan soʻz birikmasi gapga aylanadi: begʻubor osmon – (soʻz birikmasi), osmon begʻubor – (gap), toza havo – (soʻz birikmasi), havo toza – (gap). Shuni ham aytish kerakki, gapdagi ayni bir soʻz boshqa bir soʻz uchun hokim, yana boshqasi uchun tobe boʻlib ham kelishi mumkin: «Shoir xalq baxtini kuylaydi» gapida «baxtini» soʻzi «xalq baxtini» birikmasida hokim, «baxtini kuylaydi» birikmasida esa tobe komponent funktsiyasini bajaradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sintaktik sath til tizimining eng muhim va faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. U til birliklarining real nutqdagi harakatini, fikrning grammatik va mantiqiy shakllanishini taʼminlaydi. Soʻz birikmasi va gaplar orqali inson oʻz fikrini aniq, izchil va tushunarli tarzda ifodalaydi. Shu bois sintaktik sathni chuqur oʻrganish tilni mukammal bilishning muhim shartlaridan biridir. Sintaktik birliklar leksik va morfologik sathlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular oʻzaro taʼsirida yagona til tizimini hosil qiladi. Sintaktik munosabatlarni toʻgʻri anglash nutq maʼdaniyatini oshiradi, yozma va ogʻzaki nutqning sifatini yaxshilaydi. Ayniqsa, taʼlim jarayonida sintaksis masalalariga eʼtibor qaratish oʻquvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sintaktik munosabatlarni toʻgʻri anglash nutq maʼdaniyati oshiradi, yozma va ogʻzaki nutqning sifatini yaxshilaydi. Ayniqsa, taʼlim jarayonida sintaksis masalalariga eʼtibor qaratish oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Sayfullayeva, R., Qurbonova, M., va boshqalar. (2010). *Hozirgi oʻzbek adabiy tili (Sintaksis)*. Toshkent: Universitet.



2. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (1995). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis)*. Toshkent: O'qituvchi.
3. G'ulomov, A., Asqarova, M. (1987). *Hozirgi o'zbek adabiy tili (Sintaksis)*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Nurmonov, A., va boshqalar. (2001). *O'zbek tilining nazariy sintaksisi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Nematov, H., va boshqalar. (1992). *O'zbek tili struktur sintaksisi*. Toshkent: Fan.
6. Sintaktik aloqa turlari (tenglanish, ergashish, moslashish) haqidagi ma'lumotlar asosan N. Mahmudov va A. Nurmonovning nazariy ishlaridan olingan.
7. Sintaktik konstruksiya va uning miqdoriy turlari (bir so'zli, ikki so'zli) R. Sayfullayevaning zamonaviy darsliklarida keng yoritilgan.
8. Predikativ va nopredikativ bog'lanishlar haqidagi qarashlar A. G'ulomov an'anaviy maktabiga tegishli.